



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI  
HUZURIDAGI AGROSANOAT MAJMUI USTIDAN NAZORAT QILISH  
INSPEKSIYASI QOSHIDAGI "AGROSANOAT MAJMUIDA XIZMATLAR  
KO'RSATISH MARKAZI" DAVLAT UNITAR KORXONASI**

100011, Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, Xadra mavzesi, 27-uy. Tel.: (71) 244-87-49;  
e-mail: info@agroxizmat.uz; duk\_markaz@exat.uz; www.agroxizmat.uz;

2023yil 29 Mart 29 - 123 -son

**Korxona va tashkilotlar  
rahbarlariga**

**O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish Inspeksiyasi qoshidagi "Agrosanoat majmuida xizmatlar ko'rsatish markazi" davlat unitar korxonasining** (keyingi o'rinnarda-Markaz) mutaxassislar tayyorlash o'quv bo'limi tomonidan, agrosanoat sohasida faoliyat yuritayotgan mutaxassislar va korxona rahbar hodimlarini malakasini hamda bilim ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida maxsus o'quv kurslari tashkil etilayotganligini ma'lum qilamiz.

Mazkur o'quv kurslari Ta'lif sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan berilgan **KMO 0301**-sonli litsenziya, **030171**-sonli tasdiqnoma va boshqa me'yoriy hujjatlar asosida ta'lif berish bo'yicha xizmatlar ko'rsatiladi.

Taklif etilayotgan kurslar:

- "Paxta tolasini va paxta mahsulotlarini klassifikatsiyalash, sertifikatlash va marketingi";

- "O'zbekiston Respublikasi hududida g'alla qabul qilish va g'allani qayta ishlash korxonalarida don va don mahsulotlarini qabul qilish tartiblari";

- "Urug'lik g'alla maydonlarida aprobatsiya ko'rigini o'tkazish va hujjatlarni rasmiylashtirish tartibi";

- "HVI tizimini texnik ko'riganidan o'tkazish" (HVI texniklari uchun);

- "Axborot-kommunikatsiya tarmog'i mutaxassislarini qayta tayyorlash";

- "Qishloq xo'jaligi, melioratsiya va yo'l-qurilish texnikalarini boshqarish.

Mazkur kurslar qishloq xo'jaligi mahsulotlarini (paxta, urug', don) klassifikatsiyalash, marketing yo'nalishi va qishloq xo'jaligi, melioratsiya va yo'l-qurilish texnikalarini boshqarish xuquqini berish, servis xizmat ko'rsatish bo'yicha agrosanoat majmui sohasida mutaxassislarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishga qaratilgan.

Bunda, nazariy va amaliy o'quv kurslari har bir soha bo'yicha ko'p yillik tajribaga ega bo'lgan, yuqori malakali mutaxassislar tomonidan amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar, texnik jihatdan tartibga solishga doir normativ hujjatlar hamda xalqaro me'yoriy hujjatlarda belgilangan talablarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan o'quv-tematik dasturlarga muvofiq amalga oshiriladi.

O'quv kurslari soha yo'nalishlariga ko'ra, Toshkent shahridagi "O'zagroinspeksiya"ning markaziy va Markazning urug'chilik yo'nalishi joylashgan binolaridagi maxsus jihozlangan o'quv xonalarida o'tkaziladi.

Darslar o‘zbek va rus tillarida olib boriladi. Kurslarni muvaffaqiyatli tamomlagan tinglovchilarga belgilangan namunadagi xalqaro darajasidagi sertifikatlar hamda guvohnomalar taqdim etiladi.

Taklif etilayotgan o‘quv kurslarida mutaxassislarni bilimlarini oshirish yuzasidan talab va qiziqishlar bo‘lsa, ilovada keltirilgan so‘rovnomanini quyidagi [info@agroxizmat.uz](mailto:info@agroxizmat.uz) manzilga elektron shaklda yuborilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Tashkilotlardan kelgan so‘rovnoma asosida, shartnomalar tuziladi va tinglovchilar o‘quv kurs guruuhlariga qabul qilinadi.

Ko‘rsatiladigan xizmatlar yuzasidan qo‘srimcha ma’lumotlar yoki savollar bo‘yicha quyidagi telefon raqamlariga **71 202-12-05 (610), 90 371-88-98** murojaat qilishingiz mumkin.

Kelgusida samarali hamkorlik qilishdan mammunmiz, ishonchingizni oqlashga sifatli, samarali va tajribali mutaxassislar tayyorlab berib, malakasini oshirishga kafolat beramiz.

- Ilovalar:*
1. O‘quv kurslarining ro‘yhati va muddatlari -1 varaqda
  2. So‘rovnoma -1 varaqda

**Direktor v.v.b.**

 **J.Karimov**

Markazning 2023 yil “29” mai dagi  
29-123 - sonli xati ilovasi

**Mutaxassislarni tayyorlash o‘quv kurslari tomonidan  
yo‘nalishlari bo‘yicha kurslarning**

**R O‘Y H A T I**

<b>Nº</b>	<b>Malaka oshirish kurslari yo‘nalishlari</b>	<b>Soatlar soni</b>	<b>Xaftalar soni</b>	<b>Kurslarning 2023 yil jadvali</b>	<b>Kursning narhi</b>
1.	Paxta tolasini va paxta mahsulotlarini klassifikatsiyalash, sertifikatlash va marketingi	340	6	1 guruh 17.04.-26.05.2023 2 guruh 26.06.-04.08.2023 3 guruh 11.09.-20.10.2023 4 guruh 06.10.-15.12.2023	4 390 797 so‘m O‘zR nerezidentlar uchun 1350 AQSh dollarida
2.	O‘zbekiston Respublikasi hududida g‘alla qabul qilish va g‘allani qayta ishlash korxonalarida don va don mahsulotlarini qabul qilish tartiblari	18	1	Aprel-May oylarida	1 419 968 so‘m
3.	Urug‘lik g‘alla maydonlarida aprobatasiya ko‘rigini o‘tkazish va hujjatlarni rasmiylashtirish tartibi	66	3	G‘allani aprobatasiya Aprel-May-Iyun oylarida Paxtani aprobatasiya Iyul-Avgust oylarida	3 042 311 so‘m
4.	HVI tizimini texnik ko‘rigidan o‘tkazish	18	1	Xar oyda	1 127 379 so‘m
5.	Axborot-kommunikatsiya tarmog‘i mutaxassislarni 12, 20 va 24 soatlik	24	2	Yilning har 3 oyida	367 988 so‘m
6.	Qishloq xo‘jaligi, melioratsiya va yo‘l-qurilish texnikalarini boshqarish (Traktorchi-mashinist)	120	4	Yilning har 3 oyida	1 400 000so‘m

## SO'ROVNOMA

Nº	Savollar	Javoblar	Takliflar
1.	Tashkilotingizdagi rahbar va mutaxassislarining uchun qiziqtirgan qanday kurs sizni qiziqtirdi?		
2.	Korxonangizni manzili, Bank rekvizitlari va bog'lanish uchun kontaktlariz?		
3.	O'qitishga yuboriladigan mutaxassislar sonini yozing?		
4.	O'qish sizning korxonangizda, viloyatlarda o'tkazish yoki zum dasturi orqali o'tkazish imkoniyati mavjudmi?		
5.	Sizlarni qiziqtirgan savollar va qanday takliflaringiz bor?		